

10-ma'ruza.Sug'urtalashni turlari. Sug'urtalashni huquqiy ishlashi, korxonada faoliyati bilan bog'liqligi.

Reja

- 1.Majburiy sug'urta qilish obyektlari
- 2.Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlari
- 3.Boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlari
- 4.Sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni to'lash

Majburiy sug'urta qilish obyektlari

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga etkazilgan zararni foydalanuvchi-sug'urta qilinuvchi tomonidan qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlarini majburiy sug'urta qilish obyektlari hisoblanadi.

Sug'urtalanuvchining quyidagilar oqibatida paydo bo'lgan fuqarolik javobgarligi sug'urta holati deb e'tirof etilmaydi:

a) yadroviy portlash, radiatsiya, radioaktiv zararlanish, agar ular ushbu ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bog'liq bo'lmasa;

b) harbiy harakatlar, shuningdek manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar, qurolli tuzilmalar yoki terrorchilarning harakatlari;

v) ommaviy tartibsizliklar, boshqa fuqarolar bo'ysunmasligining jamoaviy holatlari, ish tashlashlar;

g) engib bo'lmaydigan kuchlar holatlarining ta'siri: tabiiy ofatlar, stixiyali tusdagi tabiat hodisalari;

d) xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarning paydo bo'lishi;

e) qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlar.

Sug'urta summasi

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazilganligi uchun xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta qilishning eng kam miqdori xavfli ishlab chiqarish obyektining tegishli turi uchun ushbu Nizomga ilovaga muvofiq belgilanadi.

Sug'urta mukofoti

Sug'urta mukofoti sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan tarif stavkalaridan va shartnomada belgilangan sug'urta summasi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Tarif stavkalari ishlab chiqarish sharoitlari va hajmlarini, xavfli ishlab chiqarish obyekti joylashgan joyini, undan foydalanishning boshqa omillarini, obyektida xavfli moddalarni muayyan hajmlarda olish, undan foydalanish, uni qayta ishlash va saqlashni, sug'urta tavakkalchiligi darajasini va sug'urta obyektining boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi.

Sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini biryo'la yoki teng qismlar bilan har chorakda (sug'urta badallari) to'laydi.

Sug'urta shartnomasi

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi tomonidan belgilangan shaklga muvofiq rasmiylashtirilgan yozma arizasi asosida rasmiylashtiriladi. Sug'urtalanuvchi arizada sug'urtalovchi tomonidan qo'yilgan masalalarga muvofiq aniq va to'liq ma'lumotlarni ko'rsatishi shart.

Sug'urta to'g'risidagi arizaga sug'urtalanuvchi, jumladan, sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi talablaridan, sug'urtalanuvchi tomonidan foydalaniladigan xavfli ishlab chiqarish obyektining identifikatsiyasidan iborat bo'lgan sanoat xavfsizligi ekspertizasi xulosasini ilova qiladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasini tuzish uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javob beradi.

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlari

Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta tavakkalchiligi darajasini aniqlash maqsadida o'z hisobidan sug'urta obyektining mustaqil ekspertizasini amalga oshirish;

b) shartnoma tuzishda va sug'urta shartnomasi amal qiladigan davrda sug'urta tavakkalchiligini baholash;

v) etkazilgan zarar miqdorini aniqlash maqsadida qo'shimcha tekshirishlar o'tkazish;

g) vakolatli organlardan zarar etkazilganligi sababli avariyaning texnik jihatdan tekshirish materiallarini, axborot va hujjatlarni, tibbiy xulosalarni, yo'qotilgan (shikastlangan) mol-mulk qiymati, amalga oshirilgan ishlar qiymati to'g'risida fikrga ega bo'lish imkonini beradigan schyotlarni, shuningdek boshqa zarur materiallarni so'rash va olish;

d) sug'urtalanuvchi tomonidan taqdim etilgan axborotlarni tekshirish, sug'urta shartnomasi talablari va shartlarining sug'urtalanuvchi tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

e) sug'urtalanuvchidan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini talab qilish.

Sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:

a) sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta hodisasi boshlanishi tavakkalchiligini kamaytirish tadbirlari amalga oshirilgan taqdirda, sug'urta hodisasi boshlanishi tavakkalchiligini kamaytirish darajasini hisobga olgan holda sug'urtalanuvchining arizasi bo'yicha sug'urta shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish;

b) zararlarni kamaytirish maqsadida sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi tomonidan qorejaishi kerak bo'lgan xarajatlarini to'lash, agar bunday xarajatlar sug'urtalovchining ko'rsatmalarini bajarish uchun zarur bo'lgan bo'lsa yoki amalga oshirilgan bo'lsa. Ko'rsatib o'tilgan xarajatlarni to'lash sug'urtalovchi tomonidan u tegishli xarajatlar to'g'risidagi dalolatnomani olgan sanadan boshlab

bir oy mobaynida, biroq sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) to'langandan keyin amalga oshiriladi. Bunday xarajatlar, hatto agar tegishli choralar muvaffaqiyatsiz bo'lganda ham va sug'urta shartnomasi bo'yicha boshqa zararlarni to'lash bilan birga ular shartnomada belgilangan sug'urta summasidan ortiq (biroq 20 foizdan ortiq emas) bo'lganda ham to'lanadi;

v) sug'urtalanuvchining mulkiy ahvoli, xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanishning holati, shartlari va xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda sug'urta shartnomasini tuzish bilan bog'liq ravishda ma'lum bo'lib qolgan boshqa maxfiy axborotni oshkor qilmaslik, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Sug'urtalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta holatini tekshirishda qatnashish;

b) sug'urta holatlarini tekshirish natijalari bo'yicha qaror yuzasidan shikoyat qilish;

v) sug'urtalovchidan xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlari to'g'risida bepul axborot olish;

g) xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish.

Sug'urtalanuvchi quyidagilarga majbur:

a) sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasini tuzishda, xabar qilingan o'ziga ma'lum bo'lgan jiddiy o'zgarishlar va holatlar to'g'risida, agar ushbu o'zgarishlar sug'urta tavakkalchiligining ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilish;

b) sug'urtalovchiga xavfli ishlab chiqarish obyektida sodir bo'lgan har qanday avariya to'g'risida, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan sug'urtalanuvchiga o'zlarining hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga etkazilgan zararni to'lash to'g'risida da'vo bildirishga olib kelishi mumkin bo'lgan avariyaning har qanday oqibatlari to'g'risida, boshqa shaxslarning zararni to'latish to'g'risidagi barcha e'tirozlari va da'volari haqida xabar qilish, avariyaning holati va sabablarini tavsiflovchi barcha hujjatlarni taqdim etish;

v) tegishli sud qarori olingan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida sug'urtalovchiga sud qarori bilan belgilangan xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lganda etkazilgan zararni to'lash majburiyati to'g'risida xabar qilish;

g) avariya sodir bo'lganda, bo'lishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirish uchun vujudga kelgan holatlarda oqilona va qulay choralarni ko'rish. Sug'urtalanuvchi bunday choralarni ko'rayotganda, agar ular sug'urtalanuvchiga xabar qilingan bo'lsa, sug'urtalovchining ko'rsatmalariga amal qilishi kerak;

d) sug'urtalovchining oldindan roziligini olmasdan boshqa shaxslar tomonidan bildirilgan talablarni bajarish bo'yicha biron-bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik.

Sug'urta shartnomasida tomonlarning kelishuviga ko'ra qonun hujjatlariga muvofiq tomonlarning boshqa huquq va majburiyatlari nazarda tutilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi tomonidan ushbu Nizom qoidalari buzilgan taqdirda ular qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlari

Boshqa shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

a) xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari bo'yicha sug'urta to'lovi olish;

b) sug'urta hodisasini tekshirishda qatnashish;

v) sug'urta hodisalarini tekshirish natijalari bo'yicha qaror yuzasidan shikoyat qilish;

g) sug'urtalovchidan xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlari to'g'risida bepul axborot olish;

d) xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish.

Boshqa shaxslar quyidagilarga majbur:

a) maxsus organlar tomonidan berilgan xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya oqibatida zarar ko'rilganligi va uning miqdorini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etish;

b) sug'urtalovchiga uning (sug'urtalovchining) tomonidan boshlangan sug'urta hodisasini mustaqil ekspertizadan o'tkazishda ko'maklashish.

Boshqa shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va boshqa majburiyatlar olishi ham mumkin.

Sug'urta to'lovi (sug'urta puli)ni to'lash

Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lgan taqdirda sug'urtalanuvchi sug'urtalovchini avariya sodir bo'lishi natijasida:

a) boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'iga;

b) boshqa shaxslarning mol-mulkiga va atrof muhitga zarar etkazilganda, xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya sodir bo'lgan vaqtdan boshlab 3 ish kuni mobaynida bu to'g'rida yozma ravishda xabardor qiladi.

Sug'urta qoplovi (sug'urta puli)ni to'lash miqdori sug'urtalovchi tomonidan avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish dalolatnomasi, sud qarorlari va sug'urta hodisasi boshlanishining sabablari va holatlari, shu jumladan boshqa

shaxslarga etkazilgan zarar miqdori ko'rsatilgan boshqa materiallar asosida belgilanadi.

Sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni to'lash tomonlar imzolagan va sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar asosida tuzilgan sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi

Sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni to'lash sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan belgilangan sug'urta puli doirasida amalga oshiriladi.

Agar bitta sug'urta shartnomasi bo'yicha ularga nisbatan turlicha sug'urta puli belgilangan bir necha xavfli ishlab chiqarish obyektlari sug'urta qilingan bo'lsa, u holda muayyan sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni to'lash avariya sodir bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyekti bo'yicha belgilangan sug'urta puli doirasida amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar qorejamaydi:

a) ma'naviy zarar;

b) sug'urtalanuvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga, ular O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan shartnoma (kontrakt)ga muvofiq mehnat majburiyatlarini bajarayotganda etkazilgan zarar;

v) sug'urtalanuvchi mulkiy huquqqa, xo'jalik yurituvi huquqiga yoki tezkor boshqarish huquqiga yoxud boshqacha qonuniy asosda (ijara huquqida, saqlash shartnomasi bo'yicha, ishonchnoma bo'yicha, mulkni unga berish to'g'risidagi tegishli organning farmoyishiga va shu kabilarga ko'ra) unga tegishli bo'lgan mol-mulkka etkazilgan zarar;

g) sug'urtalanuvchining neustoyka (jarima, penya) to'lash, uning kafolatli va shunga o'xshash majburiyatlarni bajarishi, shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi bilan bog'liq holda ko'rgan zararlari;

d) yo'qotilgan foyda.

Sug'urta to'voni (sug'urta puli) bevosita zarar ko'rganga to'lanadi. Ushbu Nizomning 15-bandi "b" kichik bandida nazarda tutilgan xarajatlar sug'urtalanuvchiga to'lanadi.

Sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni to'lash sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Sud qarori yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilingan (rad etilgan) taqdirda sug'urtalovchi sug'urta to'voni (sug'urta puli)ni to'lash to'g'risidagi masalani hal etishni, agar dastlabki qaror bo'yicha ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarish mumkin bo'lmasa, sudning uzil-kesil qarori qabul qilinadigan vaqtgacha kechiktirishi mumkin.

Etkazilgan zarar shuningdek boshqa shaxslar tomonidan qorejaadigan hollarda sug'urtalovchi faqat sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'voni (sug'urta puli) va boshqa shaxslar tomonidan qorejaadigan pul o'rtasidagi tafovutni to'laydi. Sug'urtalanuvchi sug'urtalovchini zararni jabrlanganga qoplash uchun boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilgan - o'ziga ma'lum bo'lgan to'lovlar to'g'risida xabardor qilishi shart.

Sug'urtalanuvchi sud qarorini ijro etish asosida unga nisbatan sug'urta shartnomasi tuzilgan xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish natijasida

etkazilgan zararni qoplagan taqdirda sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta tovonni (sug'urta puli)ni to'lashni u amalga oshirgan zarar tovonni doirasida, lekin sug'urta shartnomasi bo'yicha belgilangan sug'urta summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda amalga oshiradi.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonni (sug'urta puli)ni to'lashni rad etish huquqi qonun hujjatlari va shartnoma bilan belgilanadi.

Sug'urtalanuvchining zararni to'lash (subrogatsiya) yuzasidan talab qilish huquqining sug'urta tovonni (sug'urta puli)ni to'lagan sug'urtalovchiga o'tishi qonun hujjatlari va shartnoma bilan tartibga solinadi.

Nizolarni hal etish

Sug'urta shartnomasi bo'yicha paydo bo'ladigan nizolar sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erishish mumkin bo'lmagan taqdirda ularni hal etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudiga ko'rib chiqish uchun beriladi.